

## MAKTABGACHA TA'LIM QAMROVINI KENGAYTIRISH

**Abdurasulova Moxiraxon**

*Termiz davlat pedagogika insituti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi, maktabgacha ta'lim fakulteti fakulteti 201- guruh (kechki ta'lim) talabasi*

**Altibayeva G**

*Ilmiy raxbar*

**Annotatsiya** *Maqola O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimidagi islohotlar jadalligi va keying yillarda amaliyotga tatbiq qilingan ishlar samarasi keltirib otilgan. 2030 – yilgacha bolgan islohotlar va tezkor axborot olamida maktabgacha ta'lim sohasiga qaratilgan imkoniyatlar shular jumlasidandir.*

**Аннотация** *В статье описаны темпы реформирования системы дошкольного образования в Узбекистане и результаты работ, реализованных в последующие годы. Среди них реформы до 2030 года и возможности дошкольного образования в мире быстрой информации.*

**Annotation** *In the article, the intensity of reforms in the system of preschool education in Uzbekistan and the results of the works put into practice in the following years are brought out. Among them are the reforms until 2030 and the icons directed to the field of preschool education in the world of fast*

**Kalit So'zlar** *Tatqiqotlar, qamrov darajasi, sherikchilik va xususiy bogchalar, 2030 – yilgacha olib borilayotgan islohotlar*

**Ключевые Слова** *Исследования, освещение, партнерство и частные детские сады, реформы до 2030 года*

**Key Words** *Research, coverage, partnerships and private kindergartens, reforms to 2030*

“2030-yilgacha bolalarning bog'chaga qamrovi darajasini 95 foizga chiqarishimiz kerak” — Maktabgacha ta'lim vazirligi

Bugungi kunda mamlakatda 30 mingga yaqin maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 2 milliondan ziyod o'g'il-qiz tarbiyalanmoqda. So'nggi besh yilda 422 ta davlat bog'chasi qurilishi hamda 21 mingdan ortiq nodavlat muassasalar ochilishi hisobiga 1 million 200 ming o'rin yaratilgan. Tizimga bolalarni qamrab olish ko'rsatkichi 72 foizga yetgan. Xususan, aholisi zich yoki qamrov ko'rsatkichi past bo'lgan hududlarda yangi davlat bog'chalari quriladi hamda xususiy sektor kengaytiriladi. Kam quvvatda ishlayotgan maktablarda tayyorlov guruhlari tashkil etiladi.

“Hali qamrab ololmagan qismi ham bor. Ularni imkon darajasida nodavlat MTMLarga borishadi. O'ta zich bo'lgan hududlarimiz bor. Masalan, Andijon viloyatida talab ko'p. Bog'chaning quvvatiga ham qaraymiz. 7 yoshda bolalar maktabga chiqayotganda bo'shaydigan o'rinlarimiz ko'p bo'lsa navbat kelish masalasi tezlashadi. Lekin kichkina quvvatda talab yuqori bo'lsa qiyin bo'ladi. Shunday bog'chalarimiz borki, hatto 300-350 nafargacha bolalar navbatda turadi”, — deydi maktabgacha ta'lim vazirligi vakili

Abdug‘ulom Hakimov. Mutasaddilarga ta‘lim sifatini yaxshilash, dasturlarni takomillashtirish, davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini yangi bosqichga ko‘tarish yuzasidan ko‘rsatmalar berildi. Maktabgacha ta‘lim qamrovini kengaytirish bo‘yicha besh yillik dastur ishlab chiqish vazifasi qo‘yildi.

Taqdimotda maktabgacha ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish, bog‘chalarda sifat va qamrovni oshirish, bu borada ilg‘or xorijiy tajribalarni joriy qilish choralari haqida axborot berildi. Xususan, aholisi zich yoki qamrov ko‘rsatkichi past bo‘lgan hududlarda yangi davlat bog‘chalari quriladi hamda xususiy sektor kengaytiriladi. Kam quvvatda ishlayotgan maktablarda tayyorlov guruhlari tashkil etiladi.

Shavkat Mirziyoyev bu soha ayollarga yengillik yaratish va farzandlar tarbiyasida muhim ekaniga alohida e‘tibor qaratdi. Mutasaddilarga ta‘lim sifatini yaxshilash, dasturlarni takomillashtirish, davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini yangi bosqichga ko‘tarish yuzasidan ko‘rsatmalar berdi.

Taraqqiyot strategiyasi loyihasiga ko‘ra, kelgusi 5 yilda maktabgacha ta‘limdagi qamrov darajasini 62 foizdan 80 foizga yetkazish rejalashtirilgandi. 2026-yilga kelib esa 6 yoshli bolalarni 100 foiz maktabgacha tayyorlov tizimi bilan qamrab olish kutilmoqda. Buning uchun esa 7 mingdan ortiq nodavlat muassasalarni qurish, 160 mingdan ko‘proq kadrlar malakasini oshirish maqsad qilingan

Xususan, 2023-yil iyul holatida jami 30 792 ta maktabgacha ta‘lim tashkilotlari faoliyati yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, ularning 6 734 tasi davlat va 24 058 tasi nodavlat (789 ta xususiy, 21 941 ta oilaviy va DXSH asosidagi 1 328 ta nodavlat MTT) maktabgacha ta‘lim tashkilotlaridir. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 23 martdagi 47-sonli bayonida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash maqsadida, gigiyenik me‘yorlarga va “Aqlvoy oshpaz” reseptlar to‘plamidan foydalangan holda 10 kunlik yagona mavsumiy taomnoma ishlab chiqildi va aprel oyida Toshkent shahridagi 4 ta MTT tajriba sinovidan o‘tkazildi. Aniqlangan kamchiliklarni inobatga olib O‘zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasining “Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni sog‘lom ovqatlantirishni tashkil etish uchun yagona mavsumiy taomnomalarni tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish to‘g‘risida” 2023-yil 23-maydagi 1 va 12 sonli qo‘shma qarori qabul qilindi.

### FOYDALINGAN ADABIYOTLAR:

1. ANIQ.UZ
2. Sputnik O‘zbekiston ommaviy jurnali
3. “Haqiqat ovozi” ijtimoiy you tube tarmogi
4. Daryo.uz
5. Lex.uz
6. Maktabgacha ta‘lim agentligi ijtimoiy sayti